



KOMMUNIKATIV GRAMMATIKA TUSHUNCHASI VA UNING LINGVODIDAKTIK IMKONIYATLARI

Tursunov Humoyun Zoxidjon o'g'li,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti. Mustaqil tadqiqotchi, PhD

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18i.1617>

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 15-aprel 2026-yil

Tasdiqlandi: 17-aprel 2026-yil

Jurnal soni: 18-A

Maqola raqami: 57

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

kommunikativ grammatika, lingvodidaktika, kommunikativ yondashuv, grammatika o'qitish metodikasi, muloqot kompetensiyasi, interaktiv metodlar, nutq faoliyati, vaziyatli topshiriqlar, til o'qitish

ANNOTATSIIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada kommunikativ grammatika tushunchasining nazariy mohiyati hamda uning lingvodidaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Kommunikativ grammatika an'anaviy grammatika o'qitishdan farqli ravishda til birliklarini real muloqot jarayonida funksional qo'llashga yo'naltirilgan yondashuv sifatida talqin etiladi. Maqolada grammatik bilimlarni kommunikativ vazifalar bilan integratsiyalash, nutq faoliyatining barcha turlarini rivojlantirish hamda o'quvchilarning muloqot kompetensiyasini shakllantirishdagi o'rni asoslab beriladi. Shuningdek, kommunikativ grammatikaning lingvodidaktik imkoniyatlari — interaktiv metodlar, vaziyatli topshiriqlar, dialog va monolog mashqlari, hamda raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilgan holda qo'llanishi yoritiladi. Tadqiqot tizimli, kompetensiyaviy va kommunikativ yondashuvlar asosida olib borildi. Natijalar kommunikativ grammatika asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning til birliklarini amaliy qo'llash qobiliyatini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatadi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 15 april 2026

Approved: 17 april 2026

Volume: 18-A

Paper number: 57

KEYWORDS

communicative grammar, linguodidactics, communicative approach, grammar teaching methodology, communicative competence, interactive methods, speech activity, situational tasks, language teaching

ANNOTATION

This article examines the theoretical essence of communicative grammar and its linguodidactic potential. Communicative grammar is interpreted as an approach focused on the functional use of language units in real communication, in contrast to traditional grammar teaching. The study highlights the importance of integrating grammatical knowledge with communicative tasks, developing all types of speech activity, and fostering learners' communicative competence. Special attention is paid to the linguodidactic potential of communicative grammar, including the use of interactive methods, situational tasks, dialogic and monologic exercises, and digital technologies. The research is based on systemic, competency-based, and communicative approaches. The findings indicate that teaching based on communicative grammar significantly enhances learners' ability to use language effectively in real-life communication.

Kirish. Zamonaviy til ta'limida kommunikativ yondashuvning ustuvorlik kasb etishi grammatika o'qitish mazmuni va metodikasini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. An'anaviy grammatika o'qitish ko'proq qoidalarni yodlash va ularni alohida mashqlar orqali mustahkamlashga yo'naltirilgan bo'lsa, bugungi kunda tilni real muloqot jarayonida funksional qo'llash qobiliyatini rivojlantirish muhim vazifa sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, kommunikativ grammatika tushunchasi til o'qitish metodikasida yangi yondashuv sifatida shakllanib, grammatik bilimlarni amaliy nutq faoliyati bilan uzviy bog'lashni nazarda tutadi.

Kommunikativ grammatika til birliklarini izolyatsiyada emas, balki aniq kommunikativ vaziyat, nutqiy kontekst va maqsadga muvofiq qo'llash asosida o'rganishni taqozo etadi. Bu yondashuv o'quvchilarning grammatik shakllarni nafaqat to'g'ri, balki maqsadli va samarali ishlata olish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, xorijiy til o'qitishda grammatikani kommunikativ faoliyat bilan integratsiyalash o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, amaliyotda grammatika o'qitish jarayonida bir qator muammolar kuzatilmoqda. Jumladan, grammatik bilimlarning nutqiy faoliyat bilan yetarli darajada bog'lanmasligi, o'quvchilarning passiv o'rganish holati, kommunikativ topshiriqlarning kamligi hamda interaktiv metodlardan foydalanish darajasining pastligi o'quv jarayonining samaradorligini pasaytirmoqda. Bu esa kommunikativ grammatikaning lingvodidaktik imkoniyatlarini chuqur o'rganish va ularni amaliyotga joriy etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot tizimli, kommunikativ va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida olib borildi. Nazariy tahlil, qiyosiy o'rganish va umumlashtirish metodlaridan foydalanish kommunikativ grammatikaning pedagogik va lingvodidaktik imkoniyatlarini chuqurroq tahlil qilish imkonini berdi.

Adabiyotlar sharhi. Kommunikativ grammatika va uning lingvodidaktik imkoniyatlari masalasi tilshunoslik va til o'qitish metodikasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishning nazariy asoslari, avvalo, kommunikativ yondashuvning shakllanishi bilan bog'liq. Muloqot kompetensiyasi tushunchasini ilmiy asoslab bergan Dell Hymes tilni o'rganishda grammatik bilimlarning o'zi yetarli emasligini, balki ularni real ijtimoiy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyati muhim ekanligini ta'kidlaydi. Bu yondashuv keyinchalik kommunikativ grammatika konsepsiyasining shakllanishiga zamin yaratdi.

Til kompetensiyasi va nutq faoliyati o'rtasidagi farqni ilmiy asosda ishlab chiqqan Noam Chomsky[3] grammatik kompetensiya tushunchasini ilgari surgan bo'lsa-da, uning nazariyasi til o'qitishda kommunikativlikni rivojlantirish zaruratini tushunishga xizmat qildi. Keyinchalik ushbu yondashuv kommunikativ kompetensiya modeli bilan boyitilib, Michael Canale va Merrill Swain[2] tomonidan lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik komponentlarga ajratildi. Bu esa grammatikani faqat formal tizim sifatida emas, balki muloqot jarayonining muhim elementi sifatida qarash zarurligini ko'rsatdi.

Kommunikativ grammatika tushunchasining rivojlanishida til o'qitish metodikasiga oid tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Jeremy Harmer o'z ishlarida grammatika o'qitishda kommunikativ mashqlar, dialoglar, rolli o'yinlar va autentik materiallardan foydalanish zarurligini asoslaydi. Uning fikricha, grammatika nutqdan ajratilgan holda emas, balki muloqot jarayonida o'rganilgandagina samarali o'zlashtiriladi. Shuningdek, Jack C. Richards[5] kommunikativ grammatika asosida o'qitish til o'rganuvchilarning real hayotdagi kommunikativ ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

Lingvodidaktika nuqtai nazaridan kommunikativ grammatika til o'qitishning mazmuni va metodlarini yangilashga xizmat qiladi. Bu borada Yevropa til siyosatida muhim o'rin tutuvchi Common European Framework of Reference for Languages (CEFR)[6] tilni o'rganishda kommunikativ kompetensiyani markaziy o'ringa qo'yadi. CEFRga ko'ra, grammatika tilning alohida qismi sifatida emas, balki kommunikativ faoliyatni amalga oshirish vositasi sifatida qaraladi. Bu yondashuv kommunikativ grammatikaning lingvodidaktik asoslarini yanada mustahkamlaydi.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda ham grammatika o'qitishni kommunikativ yondashuv asosida tashkil etish masalalari yoritilgan. Xususan, N.A. Muslimov[7] o'z tadqiqotlarida kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitishda grammatik bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash zarurligini ta'kidlaydi. R.J. Ishmuhamedov va hamkorlari esa interaktiv metodlar va innovatsion texnologiyalar yordamida til o'qitish samaradorligini oshirish mumkinligini asoslaydi. Ularning fikricha, o'quvchilarni faol muloqotga jalb etish orqali grammatik bilimlar yanada mustahkam va barqaror o'zlashtiriladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda kommunikativ grammatikaning lingvodidaktik imkoniyatlari yanada kengayib, raqamli ta'lim vositalari bilan uyg'unlashtirilmoqda. Xalqaro tashkilotlardan UNESCO tomonidan

ishlab chiqilgan tavsiyalarda raqamli ta'lim muhitining kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi roli alohida qayd etiladi. Onlayn platformalar, multimediya vositalari va virtual muloqot muhiti grammatikani kommunikativ kontekstda o'rganish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda kommunikativ grammatika asosida o'qitishda bir qator muammolar ham ko'rsatib o'tiladi. Jumladan, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligining yetarli emasligi, an'anaviy grammatika yondashuvining ustunligi, o'quv materiallarining kommunikativ talablar asosida ishlab chiqilmaganligi hamda baholash tizimining mos emasligi ushbu yondashuvni to'liq joriy etishga to'sinlik qilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda kommunikativ grammatika asosida bo'lajak o'qituvchilarning muloqot kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligini aniqlash maqsadida pedagogik tajriba-sinov (eksperimental) metod tanlandi. Ushbu metod real ta'lim jarayonida ishlab chiqilgan metodikaning amaliy natijalarini tekshirish, nazariy g'oyalarni empirik asoslash va olingan natijalarni qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqotning obyekti sifatida Urganch davlat universitetining 60230112 – Filologiya va tillarni o'qitish: nemis tili yo'nalishida tahsil olayotgan 1-, 2- va 3-kurs talabalari tanlandi. Tadqiqotda jami 117 nafar talaba ishtirok etdi. Ishtirokchilar ilmiy asoslangan tanlash mezonlari asosida tajriba (59 nafar) va nazorat (58 nafar) guruhlariga ajratildi. Guruhlar bilim darajasi, yosh xususiyatlari va til tayyorgarligi jihatidan muvozanatlashtirildi.

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi:

1. Diagnostik bosqich

Ushbu bosqichda talabalar muloqot kompetensiyasi boshlang'ich darajasi aniqlanib, quyidagi mezonlar asosida baholandi:

- lingvistik kompetensiya (grammatik va leksik bilimlar);
- diskursiv kompetensiya (fikrni izchil bayon qilish);
- kommunikativ faollik (muloqotga kirishish darajasi);
- strategik kompetensiya (kommunikativ muammolarni hal qilish qobiliyati).

Baholash uchun test, yozma va og'zaki topshiriqlar, kuzatish hamda suhbat metodlaridan foydalanildi.

2. Shakllantiruvchi bosqich

Mazkur bosqichda tajriba guruhida kommunikativ grammatika asosida ishlab chiqilgan metodika joriy etildi. Ushbu metodika quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oldi:

- grammatik materiallarni kommunikativ vazifalar bilan integratsiyalash;
- dialogik va monologik nutqni rivojlantirish mashqlari;

- rolli o'yinlar, situativ topshiriqlar va jamoaviy ishlar;
 - interaktiv metodlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish.
- Nazorat guruhida esa an'anaviy grammatika o'qitish metodlari asosida mashg'ulotlar olib borildi.

3. Nazorat (yakuniy) bosqichi

Tajriba yakuniy talabalar muloqot kompetensiyasi darajasi qayta o'lchandi va dastlabki ko'rsatkichlar bilan qiyosiy tahlil qilindi. Bu orqali kommunikativ grammatika asosida ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligi aniqlandi.

Natijalarni tahlil qilishda matematik-statistik metodlar (foizlar, o'rtacha ko'rsatkichlar, taqqoslash tahlili) qo'llanildi. Bu usullar tajriba va nazorat guruhlari o'rtasidagi farqlarni aniqlash va natijalarning ishonchligini ta'minlash imkonini berdi.

Shu tariqa, tanlangan metodologiya kommunikativ grammatika asosida muloqot kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini kompleks o'rganish hamda uning samaradorligini ilmiy asosda baholashga xizmat qildi.

Natijalar. Tajriba-sinov ishlari davomida kommunikativ grammatika asosida tashkil etilgan o'quv jarayonining bo'lajak o'qituvchilarning muloqot kompetensiyasiga ta'siri kompleks tahlil qilindi. Dastlabki diagnostika natijalariga ko'ra, 60230112 – Filologiya va tillarni o'qitish: nemis tili yo'nalishida tahsil olayotgan 117 nafar talabada muloqot kompetensiyasi yetarli darajada shakllanmaganligi kuzatildi. Talabalar grammatik qoidalarni nazariy jihatdan bilgan bo'lsalar-da, ularni real kommunikativ vaziyatlarda qo'llash, fikrni izchil bayon qilish, dialogik nutqni davom ettirish va kommunikativ strategiyalarni tanlashda qiyinchiliklarga duch kelishdi.

Tajriba guruhida kommunikativ grammatika asosida ishlab chiqilgan metodika joriy etildi. Ushbu metodika doirasida grammatik materiallar kommunikativ vazifalar bilan integratsiyalashgan holda o'qitildi, dialog va monolog mashqlari, rolli o'yinlar, situativ topshiriqlar, juftlik va guruhli ishlar keng qo'llanildi. Bunday yondashuv talabalarni faol muloqot jarayoniga jalb etib, ularning nutqiy faolligini oshirishga xizmat qildi. Nazorat guruhida esa an'anaviy grammatika o'qitish metodlari asosida mashg'ulotlar olib borildi.

Yakuniy nazorat natijalari tajriba guruhida muloqot kompetensiyasining barcha komponentlari bo'yicha sezilarli ijobiy o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatdi. Xususan, talabalar grammatik vositalarni kommunikativ vaziyatlarda to'g'ri qo'llash, fikrni mantiqiy va izchil ifodalash, suhbatni davom ettirish va nutqiy strategiyalardan samarali foydalanish borasida ancha yuqori natijalarga erishdilar. Bu esa kommunikativ grammatika asosida tashkil etilgan metodikaning amaliy samaradorligini tasdiqlaydi.

1-jadval. Muloqot kompetensiyasining tajriba oldi va keyingi ko'rsatkichlari (117 nafar talaba)

Guruhlar	Talabalar soni	Tajriba oldi, %	Tajriba keyin, %	O'sish ko'rsatkichi, %
Tajriba guruhi	59	58,6	79,8	21,2
Nazorat guruhi	58	59,1	60,7	1,6
Umumiy samaradorlik farqi	117	—	—	19,6

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhida muloqot kompetensiyasi darajasi 58,6 foizdan 79,8 foizga oshib, 21,2 foizlik o'sish qayd etildi. Nazorat guruhida esa ko'rsatkich 59,1 foizdan 60,7 foizga oshib, atigi 1,6 foiz o'sish kuzatildi. Natijada ikki guruh o'rtasidagi umumiy samaradorlik farqi 19,6 foizni tashkil etdi.

Bu natijalar kommunikativ grammatika asosida ishlab chiqilgan metodikaning yuqori samaradorligini va uning talabalar muloqot kompetensiyasini rivojlantirishdagi muhim pedagogik vosita ekanligini tasdiqlaydi.

Tajriba yakuniy natijalariga ko'ra, tajriba guruhida muloqot kompetensiyasi rivojlanish ko'rsatkichi sezilarli darajada oshib, nazorat guruhiga nisbatan 19,6 foizga yuqori natija qayd etildi. Nazorat guruhida esa ko'rsatkichlar deyarli o'zgaragan yoki juda past darajada oshganligi kuzatildi. Ushbu farq kommunikativ grammatika asosida o'qitish metodikasining samaradorligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, kommunikativ grammatika asosida tashkil etilgan o'quv jarayoni talabalar nafaqat grammatik bilimlarini mustahkamladi, balki ularning muloqotga kirishish motivatsiyasini oshirdi, nutqiy mustaqilligini rivojlantirdi va kommunikativ vaziyatlarda erkin fikr bildirish ko'nikmalarini shakllantirdi. Ayniqsa, interaktiv metodlar va vaziyatga asoslangan topshiriqlar talabalarni faol subyekt sifatida jalb etib, o'quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirdi.

Shunday qilib, tajriba-sinov natijalari kommunikativ grammatika asosida bo'lajak o'qituvchilarning muloqot kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi pedagogik jihatdan samarali ekanligini ko'rsatdi. Mazkur yondashuv til o'qitish jarayonida nazariy bilimlar va amaliy nutq

faoliyatining integratsiyasini ta'minlab, talabalar muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qildi.

Muhokama. Mazkur tadqiqot natijalari kommunikativ grammatika asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni an'anaviy grammatika o'qitish usullariga nisbatan sezilarli ustunlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Xususan, tajriba guruhida muloqot kompetensiyasining 21,2 foizga oshgani grammatik bilimlarni kommunikativ vazifalar bilan integratsiyalash o'quvchilarning nafaqat bilim darajasiga, balki ularning nutqiy faolligi va mustaqil fikrlashiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Nazorat guruhidagi past o'sish ko'rsatkichi esa an'anaviy yondashuvning cheklangan imkoniyatlarini yana bir bor namoyon etdi.

Olingan natijalar ilgari surilgan nazariy qarashlar bilan hamohangdir. Xususan, muloqot kompetensiyasining tarkibiy qismlari (lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik kompetensiyalar) kompleks tarzda rivojlanganda til o'rganish samaradorligi ortishi haqidagi ilmiy g'oyalari tajriba natijalarida o'z tasdig'ini topdi. Bu esa grammatikani faqat formal tizim sifatida emas, balki muloqot vositasi sifatida o'qitish zarurligini yana bir bor asoslaydi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida ayrim muammolar ham aniqlandi. Jumladan, kommunikativ grammatika asosida darslarni tashkil etishda o'qituvchining metodik tayyorgarligi muhim omil bo'lib chiqdi. Interaktiv metodlardan samarali foydalanish, vaziyatli topshiriqlarni to'g'ri tanlash va ularni o'quvchilarning til darajasiga moslashtirish har doim ham oson kechmadi. Ayrim holatlarda talabalar dastlab passiv ishtirok etib, faol muloqotga kirishishda qiyinchiliklarga duch kelishdi. Bu esa kommunikativ yondashuvni joriy etishda bosqichma-bosqichlik va tizimlilik muhim ekanligini ko'rsatadi.

Yana bir muhim jihat — baholash tizimi masalasidir. An'anaviy baholash usullari ko'proq grammatik to'g'rilikni aniqlashga qaratilgan bo'lsa, kommunikativ grammatika sharoitida baholash mezonlari nutqning mazmuni, mantiqiyliigi, mosligi va kommunikativ samaradorligini ham qamrab olishi lozim. Tadqiqot jarayonida bu borada muayyan qiyinchiliklar kuzatildi, bu esa baholash mezonlarini takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi.

Natijalar shuni ham ko'rsatdiki, kommunikativ grammatika nafaqat til o'rganish samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarning motivatsiyasini ham sezilarli darajada kuchaytiradi. Ayniqsa, rolli o'yinlar, guruhli ishlar va real hayotga yaqin vaziyatlar asosida tashkil etilgan topshiriqlar talabalarda til o'rganishga nisbatan qiziqishni oshirdi. Bu esa o'quv jarayonida psixologik omillarning ham muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi.

Shu nuqtai nazardan, kommunikativ grammatikaning lingvodidaktik imkoniyatlari keng va ko'p qirrali ekanligi ayon bo'ladi. U nafaqat grammatik bilimlarni chuqurlashtirish, balki ularni real muloqot jarayonida qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Biroq ushbu yondashuvni samarali joriy etish uchun metodik ta'minotni boyitish, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish hamda zamonaviy baholash tizimlarini ishlab chiqish zarur.

Tadqiqot natijalari kommunikativ grammatika asosida o'qitish metodikasi zamonaviy til ta'limi talablariga to'liq javob berishini ko'rsatadi va uni keng miqyosda amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq ekanligini asoslaydi.

Xulosa. Mazkur maqolada kommunikativ grammatika tushunchasi va uning lingvodidaktik imkoniyatlari nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kommunikativ grammatika an'anaviy grammatika o'qitishdan farqli ravishda til birliklarini real

muloqot jarayonida funksional qo'llashga yo'naltirilgan samarali yondashuv hisoblanadi. Ushbu yondashuv grammatik bilimlarni nutq faoliyati bilan integratsiyalash orqali o'quvchilarning muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari kommunikativ grammatika asosida tashkil etilgan o'quv jarayoni talabalarning muloqot kompetensiyasini sezilarli darajada oshirishini tasdiqladi. Xususan, tajriba guruhida muloqot kompetensiyasining rivojlanish ko'rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan **19,6 foizga yuqori** bo'lgani metodikaning samaradorligini isbotlaydi. Bu esa grammatik materiallarni kommunikativ vazifalar bilan uyg'unlashtirish, interaktiv metodlardan foydalanish va talabalarni faol muloqotga jalb etish muhim pedagogik omillar ekanligini ko'rsatadi.

Tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi: birinchidan, kommunikativ grammatika til o'qitish jarayonini faollashtiradi va o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantiradi; ikkinchidan, interaktiv va situativ yondashuvlar talabalarni real kommunikativ vaziyatlarga tayyorlaydi; uchinchidan, raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilgan ta'lim muhiti kommunikativ kompetensiyani yanada samarali shakllantirish imkonini beradi.

Umuman olganda, kommunikativ grammatika asosida o'qitish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, ularning muloqot kompetensiyasini rivojlantirish hamda zamonaviy ta'lim talablariga mos mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bois mazkur yondashuvni ta'lim amaliyotiga keng joriy etish, metodik ta'minotni boyitish va pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hymes D. On communicative competence // Pride J.B., Holmes J. (eds.). *Sociolinguistics*. – London: Penguin Books, 1972. – P. 269–293.
2. Canale M., Swain M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing // *Applied Linguistics*. – 1980. – Vol. 1(1). – P. 1–47.
3. Chomsky N. *Aspects of the Theory of Syntax*. – Cambridge: MIT Press, 1965. – 251 p.
4. Harner J. *How to Teach English*. – London: Longman, 2007. – 288 p.
5. Richards J.C., Rodgers T.S. *Approaches and Methods in Language Teaching*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 270 p.
6. Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – Москва: Просвещение, 1991. – 223 с.
7. Муслимов Н.А. Касбий компетентлик ва уни шакллантириш технологиялари. – Тошкент: Фан, 2015. – 220 б.
8. Brown H.D. *Principles of Language Learning and Teaching*. – 5th ed. – White Plains, NY: Pearson Education, 2007. – 410 p.
9. Ur P. *A Course in Language Teaching: Practice and Theory*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1996. – 375 p.
10. Scrivener J. *Learning Teaching*. – 3rd ed. – Oxford: Macmillan Education, 2011. – 416 p.
11. Mahalliy va mintaqaviy manbalar:
12. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2008. – 180 b.
13. Xolbekov M.X. *Til o'qitish metodikasi*. – Toshkent: O'qituvchi, 2014. – 256 b.
14. Jalolov J.J. *Chet til o'qitish metodikasi*. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 304 b.
15. Sattorov T.Q. *Til va nutq metodikasi asoslari*. – Toshkent: Fan, 2016. – 220 b.